



TIJORAT BANKLARI INVESTITSION FAOLLIGINI OSHIRISHDA MOLIYA-SANOAT GURUHLARINING O'RNI

THE ROLE OF FINANCIAL-INDUSTRIAL GROUPS IN ENHANCING THE INVESTMENT ACTIVITY OF COMMERCIAL BANKS

¹**Abduvaliyev Sanjar
Abdurahmanovich**

¹Mustaqil izlanuvchi. G-mail: s.abduvaliev@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarining investitsion faoliyatini rivojlantirish masalalari hamda moliya-sanoat guruhlar tarkibida ularning investitsion siyosatini amalga oshirish mexanizmlari tahlil qilingan. Shuningdek, banklarning investitsion siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganilib, ularni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Eng. - In this article, the issues of developing the investment activities of commercial banks and the mechanisms for implementing their investment policies within the framework of financial-industrial groups are analyzed. In addition, the factors influencing banks' investment policies are examined, and scientifically grounded conclusions and recommendations for their improvement are proposed.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *tijorat banklari, investitsion faoliyat, moliya-sanoat guruhlar, investitsion siyosat, kapital integratsiyasi, investitsion portfel, moliyaviy barqarorlik.*

❖ *commercial banks, investment activity, financial-industrial groups, investment policy, capital integration, investment portfolio, financial stability.*

Kirish.

Iqtisodiyotning real sektorini moliyaviy resurslar bilan ta'minlash mamlakatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim omillardan biridir. Ushbu jarayonda tijorat banklarining faol ishtiroki iqtisodiyotning samarali ishlashi va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishda alohida o'rin tutadi. Bank tizimi orqali investitsion mablag'larning oqimini real sektor tarmoqlariga yo'naltirish iqtisodiy o'sishning barqaror manbalarini yaratadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari investitsion jarayonlarning eng faol ishtirokchilaridan biri hisoblanadi. Ular nafaqat moliyaviy vositachilik, balki kapitalning qayta taqsimlanishi, innovatsion

loyihalarni moliyalashtirish va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsion oqimlar asosan banklar, investitsiya fondlari va boshqa moliya institutlari orqali iqtisodiyot tarmoqlariga yo'naltiriladi. Shu bois tijorat banklari ishlab chiqarish korxonalari va investorlar o'rtasidagi moliyaviy aloqadorlikni ta'minlovchi asosiy bo'g'in sifatida namoyon bo'ladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda moliyaviy sektorni isloh qilish, bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish va xalqaro standartlarga mos bo'lgan boshqaruv mexanizmlarini joriy etish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, bank

xizmatlari sifatini oshirish va investitsion jozibadorlikni kuchaytirish bo'yicha davlat siyosati sezilarli natijalar bermoqda.

Mazkur yo'nalishdagi muhim hujjatlardan biri — O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020–2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida [1]"gi PF-5992-sonli Farmoni hisoblanadi. Ushbu strategiya zamonaviy bank tizimini shakllantirish, investitsion faoliyatni kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda bank xizmatlarining xalqaro talablarga mos standartlarini joriy etishga qaratilgan. Strategiyada belgilangan ustuvor vazifalar tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish, real sektor korxonalari bilan hamkorlikni mustahkamlash va moliya-sanoat guruhleri o'rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi iqtisodiyotda barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyati hamda moliya-sanoat guruhleri doirasida ularning investitsion siyosatini amalga oshirish jarayoni iqtisodiy adabiyotlarda keng muhokama etilgan masalalardan biridir. Ushbu yo'nalishda ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan banklarning investitsion faolligini oshirish, moliya-sanoat integratsiyasini chuqurlashtirish va investitsion siyosatni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

Xususan, И. Беляева, М. Эскиндаров tadqiqotlari tijorat banklarining investitsion faolligini oshirishda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishning ahamiyatiga bag'ishlangan bo'lib, ular ushbu guruhlar tarkibida aksiyadorlik munosabatlarini samarali tashkil etish zarurligini ta'kidlab o'tishgan [2]. Shu bilan birga, Т.И.Минина ва А.С.Кудаков

izlanishlarida moliya-sanoat guruhlarining shakllanishi hamda rivojlanishida banklarning roli, ularning investitsion faoliyatini tashkil etish tamoyillari va mexanizmlarini tahlil qilishgan [3; 4].

I.A. Zaripov esa o'z tadqiqotlarida moliya-sanoat guruhleri faoliyatida investitsion mexanizmlarni shakllantirish, tijorat banklarining investitsion siyosatini ishlab chiqish hamda istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishda banklarning ahamiyatini ochib bergan [5].

Shuningdek, В.А. Цветков, Е.Н. Чекмаева ва В.В.Яронтовский izlanishlarida moliya-sanoat guruhlarining barqarorligini oshirish, guruh tarkibidagi banklarning investitsion faoliyatini samarali tashkil etish, investitsion siyosatga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va boshqarish yo'nalishlari ilmiy asosda tadqiq qilingan [6; 7; 8].

O'zbekistonlik olimlardan F. Mirzayev va J.X. Ataniyazovlar tijorat banklari ishtirokida moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish jarayonining xususiyatlarini, bu jarayonning banklar investitsion faolligiga ta'sirini, shuningdek, investitsion loyihalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan moliyaviy risklarni baholash masalalarini o'rganishgan [9; 10].

Umuman olganda, ilmiy manbalarda ta'kidlanishicha, moliya-sanoat guruhleri zamonaviy integratsiyalashgan korporativ tuzilma sifatida iqtisodiy tizimda muhim o'rin egallaydi. Ular milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va innovatsion rivojlanishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish natijasida tijorat banklarining investitsion faolligi ortib, samaradorligi yuqori bo'lgan investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun yangi imkoniyatlar vujudga keladi.

Shunday ekan, moliya-sanoat guruhleri doirasida tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish, ularning investitsion

siyosatini ilmiy asosda shakllantirish hamda bu jarayonning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil etish bugungi kunda iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlash nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Global iqtisodiy integratsiya va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish asosida tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish milliy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli ushbu ilmiy maqolada tijorat banklarining investitsion siyosatini shakllantirish jarayonlari, moliya-sanoat guruhlari doirasida ularning investitsion faoliyatini tashkil etish mexanizmlari chuqur o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida olingan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish maqsadida induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, grafik tasvirlash, hamda iqtisodiy-statistik kabi usullardan tarzda foydalanildi. Ushbu yondashuv tijorat banklari investitsion siyosatini baholash, moliya-sanoat guruhlarining iqtisodiyotdagi o'rnini aniqlash va ularning o'zaro ta'sir mexanizmlarini ilmiy asosda ochib berishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliya-sanoat guruhlarining asosiy yo'nalishlaridan biri tijorat banklari tomonidan investitsion faoliyatni samarali tashkil etish va guruh tarkibiga kiruvchi korxonalarining moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini to'liq qondirishdan iboratdir. Ushbu jarayonning muhim jihatlaridan biri sifatida sanoat korxonalari miqyosida investitsiyalarni tasniflash hamda investitsion faoliyatni yuqori samaradorlik bilan amalga oshirish jarayonlarini shakllantirish e'tirof etiladi.

Tijorat banklarining korxona xo'jalik faoliyatidagi ishtiroki ma'lum iqtisodiy va tashkiliy shart-sharoitlar asosida yuzaga keladi. Ular quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

– istiqbolli investitsion loyihalarni ishlab chiqish va investitsion resurslar harakati ustidan moliyaviy nazoratni yo'lga qo'yish;

– yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'lgan moliyaviy risklarni boshqarish hamda ularni diversifikatsiya qilish orqali bank foydasini maksimallashtirish;

– bank faoliyati ko'lamini kengaytirish, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash va ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini oshirish;

– mijozlar bazasini kengaytirish, yangi resurs manbalarini jalb etish hamda qo'shimcha daromad oqimlarini shakllantirish;

– sanoat korxonalarida istiqbolli va yuqori rentabelli investitsion loyihalarni amalga oshirishda faol ishtirok etish [11].

Milliy iqtisodiyotda investitsion jarayonlarni faollashtirish va unda tijorat banklarining rolini kuchaytirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Banklar investitsion salohiyatini oshirish, ularning moliyaviy vositachilik funksiyasini kengaytirish orqali amalga oshiriladi. Bunga bank mablag'larini investitsion maqsadlarga yo'naltirish, investitsion kreditlar berish, ulushli ishtirok shaklida sarmoya kiritish hamda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni kengaytirish kiradi.

Tijorat banklarining moliya-sanoat guruhlari doirasidagi investitsion faolligi ayniqsa yuqori bo'lib, bunday tuzilmalar banklarga istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish, qimmatli qog'ozlar bozorida faol ishtirok etish va moliyaviy resurslarni yuqori daromad keltiruvchi yo'nalishlarga yo'naltirish imkonini beradi. Shu bilan birga, moliya-sanoat guruhlari tarkibida banklar tomonidan investitsion siyosatni ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayoni strategik boshqaruvning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Guruh darajasida ishlab chiqiladigan investitsion siyosat investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, istiqboldagi natijalarni prognozlash hamda ularga

erishishning optimal mexanizmlarini tanlashni o'z ichiga oladi. Ushbu jarayon doirasida investitsion manbalarni diversifikatsiya qilish, ularning hajmini oshirish, shuningdek, o'zgaruvchan bozor kon'yunkturasi sharoitida investitsion samaradorlikni ta'minlash masalalari alohida ahamiyat kasb etadi.


Moliya-sanoat guruhlarida tijorat banklari tomonidan amalga oshiriladigan investitsion strategiya uzoq muddatli maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lib, u iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, kapitalning qaytishini tezlashtirish va moliyaviy risklarni kamaytirish kabi vazifalarni qamrab oladi. Investitsion strategiya asosida ishlab chiqilgan taktik yondashuvlar esa investitsion loyihalarning tarkibini, hajmini va amalga oshirish mexanizmlarini aniqlaydi. Shu orqali banklar o'z investitsion siyosatini mavjud iqtisodiy sharoitlarga moslashtiradi.

Moliya-sanoat guruhlarida banklar investitsion faoliyatining samaradorligi ularning foydalilik, likvidlik va risk darajasi o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlash qobiliyatiga bog'liq. Shu bois, banklar investitsion siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida bozor sharoitlaridagi o'zgarishlarni inobatga olgan holda strategik moslashuvchanlikni ta'minlashi zarur.

Bundan tashqari, moliya-sanoat guruhlarida samarali investitsion siyosatni shakllantirishning asosiy sharti guruh ishtirokchilari faoliyatini barqaror rivojlantirish va umumiy iqtisodiy manfaatlar uyg'unligini ta'minlashdir. Investitsion siyosat ushbu tuzilmaning barcha ishtirokchilarini yagona moliyaviy maqsadlar sari yo'naltiruvchi tizimli mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Tijorat banklarining moliya-sanoat guruhlarida tarkibidagi investitsion faoliyatining bosh maqsadi qo'shimcha investitsion resurslarni jalb etish, ularni oqilona taqsimlash hamda risklar darajasini kamaytirgan holda foydalilikni maksimal darajaga yetkazishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, banklar tomonidan ishlab chiqiladigan investitsion siyosat natijalari doimiy ravishda tahlil qilinib, samaradorligi monitoring asosida baholab borilishi lozim.

Bunday yondashuv banklarga resurs barqarorligini ta'minlash, kapital qo'yilmalarni diversifikatsiya qilish, yuqori rentabelli loyihalarni amalga oshirish hamda moliya-sanoat guruhlarining umumiy moliyaviy barqarorligini mustahkamlash imkonini beradi.



1-rasm. Moliya-sanoat guruhlarida banklar tomonidan investitsion siyosatini shakllantirishning asosiy bosqichlari [12]

Moliya-sanoat guruhlarini tarkibida tijorat banklarining investitsion faoliyatini samarali amalga oshirishda ular tomonidan shakllantirilgan moliyaviy resurslar hajmi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Banklar investitsion resurslarini boshqarish strategiyasi investitsion faoliyatning ustuvor yo'nalishlarini moliyalashtirish, kapitalni samarali taqsimlash va resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan bo'ladi.

Bunda banklarning investitsion siyosatini amalga oshirish samaradorligiga ta'sir etuvchi turli omillar mavjud bo'lib, ular natijaviy ko'rsatkichlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar qatoriga quyidagilar kiradi:

- mamlakatda yaratilgan umumiy investitsion muhit holati;
- moliya va investitsion bozorlarning rivojlanish darajasi;
- bozor kon'yunkturasining o'zgaruvchanligi;
- moliyaviy institutlarning barqarorligi;
- korporativ boshqaruv va integratsiyalashuv jarayonlarini qo'llab-quvvatlash choralari;
- mamlakatning jahon moliya tizimiga integratsiyalashuv darajasi.

Tijorat banklari ushbu omillarni inobatga olgan holda o'z investitsion siyosatini shakllantirishi, ularning ta'sir darajasini tahlil etishi va boshqaruv qarorlarini ilmiy asosda qabul qilishi zarur. Investitsion imkoniyatlarni baholash jarayonida tahliliy ma'lumotlarning quyidagi tarkibiy elementlari muhim ahamiyat kasb etadi:

- investitsion muhit holatini tavsiflovchi ko'rsatkichlar;
- investitsion bozorning rivojlanish dinamikasi;
- korxonalarning investitsion jozibadorligi;
- investitsion bozordagi daromadlilik darajasi;
- banklarning investitsion faoliyati va soliq yuklamasiga doir ko'rsatkichlar.

Mazkur ko'rsatkichlarni tizimli tahlil qilish natijalari investitsion faoliyat bo'yicha strategik qarorlar qabul qilish jarayonida muhim axborot manbai sifatida xizmat qiladi. Tahliliy ma'lumotlarning to'liqligi investitsion siyosatning aniqligini va amalga oshirilayotgan loyihalarning samaradorligini belgilaydi.

Moliya-sanoat guruhlarini tarkibida tijorat banklarining faol ishtiroki moliyaviy institutlar va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni shakllantirish imkonini beradi. Bunda banklar uchun bir qator afzalliklar yaratiladi: moliyaviy oqimlar ustidan doimiy nazorat o'rnatish, risklarni diversifikatsiya qilish asosida investitsion portfelni optimallashtirish, istiqbolli investitsion loyihalarda bevosita ishtirok etish va mijozlar bazasini kengaytirish orqali resurs barqarorligini mustahkamlash.

Integratsiyalashgan tuzilmalarda tijorat banklari faoliyat yuritishi natijasida ularning sanoat korxonalari bilan hamkorligi mustahkamlanadi, yuqori rentabelli loyihalarni birgalikda ishlab chiqish va amalga oshirish imkoniyatlari kengayadi. Natijada banklarning investitsion siyosatini amalga oshirish uchun qulay tashkiliy-moliyaviy sharoitlar yaratiladi. Bunday muhitda banklar o'z mijozlari bo'lgan korxonalar faoliyatini tizimli tahlil qiladi, investitsion loyihalar ustidan nazoratni kuchaytiradi, jarayonlarni prognozlashni takomillashtiradi va bu orqali o'z raqobatbardoshligini oshiradi [13].

Xalqaro amaliyotda, xususan, Yaponiya tajribasida moliya-sanoat guruhlarini (keiretsu) faoliyatida banklarning roli alohida ahamiyatga ega. Yapon banklari nafaqat kredit berish, balki sanoat kompaniyalarini moliyalashtirish, ularning investitsion loyihalarida ishtirok etish, hamkor korxonalar uchun sherik topish va biznes xizmatlari ko'rsatishda ham faol qatnashadi. Asosiy bank odatda guruh kompaniyalariga strategik investor sifatida xizmat qiladi, ya'ni u bir vaqtning o'zida ham kredit beruvchi, ham aksiyador sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa korxonalar bilan uzoq

muddatli va barqaror hamkorlikni shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, asosiy bank guruhidagi korxonalar faoliyatini muntazam monitoring qiladi, moliyaviy risklarni baholaydi va zarurat tug'ilganda boshqaruv jarayoniga bevosita ko'maklashadi.

O'zbekiston sharoitida ham so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish, real sektor korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash hamda investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi rolini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan, tijorat banklari tomonidan investitsiya va lizing kompaniyalari tashkil etilishi banklarning moliya-sanoat guruhlarini shakllanishidagi ishtirokini kuchaytiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Masalan, "Ipoteka-bank" aksiyadorlik tijorat ipoteka banki tomonidan tashkil etilgan investitsiya kompaniyasi va "Aloqabank" tomonidan tuzilgan lizing kompaniyasi o'z faoliyatlarini sanoat tarmoqlarini moliyalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yo'naltirgan. Bunday tashabbuslar tijorat banklarining investitsion salohiyatini kengaytirish, ularning iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlash hamda moliya-sanoat

guruhlarini shakllantirish uchun zarur institutsional asoslarni yaratmoqda.

Umuman olganda, tijorat banklari tomonidan investitsion va lizing kompaniyalarini tashkil etish, istiqbolli loyihalarni moliyalashtirishdagi faollik hamda sanoat korxonalari bilan barqaror hamkorlikni rivojlantirish — moliya-sanoat guruhlarini shakllantirishni jadallashtiruvchi va milliy iqtisodiyotning investitsion salohiyatini oshiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya darajasining yuqoriligi banklar tomonidan belgilanuvchi real foiz stavkalarining pasayishiga olib keladi hamda bu holat investitsiya jarayonlarini rag'batlantirmaydi. Real foiz stavkalarining past bo'lishi natijasida investitsion faoliyatning kengayish imkoniyatlari chegaralanadi va iqtisodiyotda kapital resurslarining samarali taqsimlanish jarayoni sekinlashadi.

So'nggi yillarda tijorat banklarining kredit qo'yilmalari hajmi barqaror o'sish sur'atlarini saqlab qolgan holda, uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkalarida keskin o'zgarishlar kuzatilmagani e'tiborga molikdir. Shu bilan birga, majburiy zaxira me'yorlarining o'zgarishi hamda ularning tabaqalashtirilgan holda qo'llanilishi banklarning resurs bazasini shakllantirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

1-jadval

Tijorat banklari investitsiya kreditlari hajmi va daromadlilik darajasi [14]

Ko'rsatkichlar	2020 y.	2021 y.	2022 y.	2023 y.	2024 y.
Uzoq muddatli kreditlar, mlrd. so'm	247036	291399	338909	410210	457109
Uzoq muddatli kreditlarning jami kreditlar hajmidagi ulushi, foizda	89,7	89,7	86,9	87,0	86,0
Milliy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning foizi	19,7	18,9	22,3	23,1	23,4
Xorijiy valyutadagi uzoq muddatli kreditlarning foizi	5,7	5,9	6,8	8,9	9,9

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2020-2024-yillar mobaynida tijorat banklari tomonidan ajratilgan uzoq muddatli kreditlar hajmi 247,0 trln. so'mdan 457,1 trln. so'mgacha oshib, deyarli 2,13 barobarga ko'paygan. Ushbu davrda uzoq muddatli kreditlarning umumiy kreditlar tarkibidagi ulushi 2020-2021-yillarda

89,7 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, keyingi yillarda biroz pasayish kuzatilib, 2024-yilga kelib 86 foiz darajasiga tushgan.

Mijozlarga milliy valyutada ajratilgan uzoq muddatli kreditlarning o'rtacha foiz stavkasi 2020-yilda 19,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich 23,4 foizga

yetgan. Iqtisodiyotda kreditlarga bo'lgan talabning yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi yil yakunida 0,3 foiz bandga oshib, 23,4 foiz atrofida shakllangan.

Xorijiy valyutada beriladigan uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foiz stavkasi ham barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda: 2020-yilda 5,7 foizni tashkil etgan ko'rsatkich, 2024-yilda 9,9 foizga yetgan. Ushbu o'sish, bir tomondan, tashqi moliyaviy resurslar tannarxining ortib borayotganini, boshqa tomondan esa valyuta risklarining kuchayganini anglatadi.

2024-yil yakunida tijorat banklari kredit portfelida uzoq muddatli kreditlarning ulushi 86 foizni tashkil etgani iqtisodiyotning real sektori uchun uzoq muddatli moliyalashtirish manbalariga bo'lgan talab yuqoriligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qayta moliyalashtirish stavkasi, inflyatsiya darajasi va valyuta siyosati kabi omillar ham tijorat banklari kredit siyosatining samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan.

Hozirgi iqtisodiy sharoitda tijorat banklari investitsion kreditlar hajmiga ta'sir etuvchi asosiy omillar qatoriga hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, moliyaviy resurslarning tannarxi hamda davlat tomonidan bank tizimi uchun yaratilgan imtiyoz va qo'llab-quvvatlash choralari kiradi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda moliya bozori hali yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli tijorat banklari investitsiyalarni moliyalashtirishda asosan uzoq muddatli kredit vositalariga tayangan holda faoliyat yuritmoqda. Bir yil va undan ortiq muddatga beriladigan bunday kreditlar, odatda, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion xarajatlarini qoplash, asosiy kapitalni yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltiriladi.

Umuman olganda, jadvalda keltirilgan raqamlar mamlakatimiz tijorat banklarining investitsion faoliyati yildan-yilga izchil rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. Iqtisodiyotga yo'naltirilayotgan kredit qo'yimalari tarkibida sifat jihatidan o'sish kuzatilmoqda, bu esa kreditlarning muddatlar bo'yicha diversifikatsiyasini tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda tijorat banklari kredit portfelining salmoqli qismini (86 foiz) uzoq muddatli kreditlar tashkil etadi. Bu holat, bir tomondan, banklarning kreditlash imkoniyatlari kengayib borayotganidan, ikkinchi tomondan esa investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi ularning faol ishtiroki ortib borayotganidan dalolat beradi.

Shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlari tomonidan investitsion ehtiyojlarni qondirish maqsadida tijorat banklari kreditlariga bo'lgan talabning ortib borayotgani kuzatilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratiladigan investitsion kreditlar hajmiga makroiqtisodiy va moliyaviy omillar — jumladan, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi, depozit foizlari bo'yicha talablar, valyuta kursining dinamikasi, uzoq muddatli kreditlar foiz stavkalari hamda inflyatsiya darajasi bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar.

Tijorat banklarining investitsion faolligini oshirish va investitsion siyosatni samarali yuritish jarayonida eng muhim masalalardan biri investitsion loyihalar bilan bog'liq moliyaviy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish tizimini takomillashtirishdir. Chunki investitsion loyihalar amaliyotida iqtisodiy, siyosiy, texnologik hamda bozor omillarining o'zgarishi natijasida moliyaviy tavakkalchiliklar vujudga kelishi tabiiydir. Bu esa, o'z navbatida, loyiha samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, tijorat banklari tomonidan risklarni monitoring qilish, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha chora-

tadbirlarni tizimli asosda amalga oshirish zarur hisoblanadi.

Bundan tashqari, banklarning investitsion faoliyatida portfel diversifikatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Bozor sharoitining o'zgaruvchanligi va noaniqligi sharoitida investitsiya portfelining yetarli darajada diversifikatsiyalangan bo'lishi banklarning risklarga bardoshlilikini oshiradi, barqaror daromad manbaini yaratadi va investitsion xavfsizlikni ta'minlaydi. Shu bois tijorat banklari turli tarmoqlardagi investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali o'z portfellarini kengaytirishlari, shuningdek, investitsiya yo'nalishlarini sektorlar kesimida optimallashtirishlari zarur.

Moliya-sanoat guruhleri tarkibida tijorat banklarining ishtiroki ularga kapital resurslarini samarali taqsimlash, risklarni pasaytirish va investitsion daromadlilikni oshirish imkonini beradi. Bunday integratsiya moliyaviy va ishlab chiqarish kapitalining birlashuvi orqali iqtisodiyotning real sektorida investitsion faollikni kuchaytiradi.

Tijorat banklarining investitsion siyosatini takomillashtirish jarayonida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- banklarning investitsiya portfelini diversifikatsiyalash va risklarni boshqarish

tizimini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish;

- investitsion siyosat samaradorligiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy omillarni kompleks tahlil qilish;

- tijorat banklari bilan sanoat korxonalari o'rtasida barqaror moliyaviy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish;

- moliya va sanoat kapitalining o'zaro integratsiyasini ta'minlash orqali moliya-sanoat guruhlarini bosqichma-bosqich shakllantirish;

- kapitali yetarli banklar asosida barqaror moliya-sanoat tuzilmalarini rivojlantirish va ularning investitsion faoliyatini muvofiqlashtirish.

Xulosa qilib aytganda, moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish va tijorat banklarining ushbu tuzilmalardagi faol ishtiroki milliy iqtisodiyotning investitsion salohiyatini oshirishda, ishlab chiqarish tarmoqlarini modernizatsiya qilishda, eksportni kengaytirishda va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Buning natijasida, ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardosh, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni rivojlantirish imkoniyati kengayadi va milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-sonli Farmoni.

2. Беляева И.Ю., Эскиндаров М.А. Финансово-промышленные группы в современной экономике. - М., 2004. - 216 с.

3. Кудakov А.С. Особенности формирования финансово-промышленных корпоративных структур и их влияние на экономику страны.// Проблемы современной экономики, №3(23), 2007. - С. 11.

4. Минина Т.И. Роль банков в формировании и развитии ФПГ России. автореф. дис...докт. эконом. наук. - Москва: 2000. - 12 с.

5. Зарипов И.А. Инвестиционный механизм финансово-промышленных групп России. Автореферат дисс. на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. - 2004. - С. 23.

6. Цветков В.А. Финансово-промышленные группы: тенденции развития // Промышленные ведомости, №14, 2001.
7. Чекмарева Е.Н. Банки в финансово-промышленных группах // Российский экономический журнал. – М., 1999. №7. с.20-27.
8. Яронтовский В.В. Банки в интегрированных холдинговых структурах: автореф. дис...канд. эконом. наук. – Санкт-Петербург, 2009. – 24 с.
9. Mirzayev F.I. Banklararo raqobat: mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari. – T.: «Moliya», 2008. –b. 193-205.
10. Ataniyazov J.X. Moliya-sanoat guruhlarini shakllantirish: nazariy, uslubiy va amaliy jihatlar. Monografiya. – T.: Tafakkur qanoti. 2017. - 144 b.
11. Банковское дело: Справочное пособие / Под редакцией Ю.А. Бабичева. М.: Экономика, 2004. 412 с.
12. Карапетян А.И. Совершенствование инвестиционной политики коммерческих банков в условиях реализации антикризисных программ: автореф. дис...канд. эконом. наук. – Москва, 2011. – С.9-10.
13. Шмачкова М.А. Совершенствование кредитно-инвестиционной деятельности коммерческого банка: автореф. дис...канд. эконом. наук. – Краснодар, 2013. 25 с.
14. www.cbu.uz – O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb sahifasi.